

OILA SHAROITIDA SEREBRAL FALAJGA EGA BOLA BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION - RIVOJLANTIRUVCHI ISHLARNING MAZMUNI VA VAZIFALARI

Tursunpo'latova Zulayxo

Namangan davlat pedagogika instituti

Maxsus pedagogika (logopediya)

yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Abdulxamidova Gulnoza Nasriddin qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Kreativ pedagogika va psixologiya

kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar serebral falajining kelib chiqish sabablari, turlari, xalqaro tasnifi tahlil qilingan. Shuningdek, BSF bolalarda olib boriladigan korreksion- rivojlantiruvchi ishlarda ota-onalarning o'rnini hamda uy sharoitida olib borilishi mumkin bo'lgan korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar mazmuni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: bolalar serebral falaji, BSF, korreksion rivojlantiruvchi ishlar, xalqaro tasnif, ota-onalar ro'li, uy sharoitida reabilitatsiya, logopedik mashg'ulotlar.

Abstract. This article analyzes the causes, types, and international classification of cerebral palsy (CP). It also describes the role of parents in the correctional and developmental work carried out in children with CP, as well as the content of correctional and developmental activities that can be carried out at home.

Keywords: cerebral palsy, CP, correctional and developmental work, international classification, role of parents, home-based rehabilitation, logopedic exercises.

Аннотация. В данной статье анализируются причины возникновения, типы и международная классификация детского церебрального паралича (ДЦП). Описывается роль родителей в коррекционно-развивающей работе с детьми, а также содержание мероприятий, которые могут проводиться в домашних условиях.

Ключевые слова: детский церебральный паралич, ДЦП, коррекционно-развивающая работа, международная классификация, роль родителей, реабилитация в домашних условиях, логопедические занятия.

Bolalar serebral falaji (BSF) – ko'p etiologiyali kasallik bo'lib bosh miya harakatlantiruvchi markazlari va bosh miyadagi harakatni yo'naltiruvchi yo'llarning zararlanishi bilan kechadigan markaziy nerv sistemasi kasalligidir. Miya falajining

asosiy sababi : homila va yangi tug'ulgan chaqaloq miyasining shikastlanishi yoki g'ayritabiiy rivojlanishi. Homila davridagi sabablari esa quydagilar: onaning o'tkir yoki surunkali kasalliklar (gipertoniya, yurak nuqsonlari, anemiya, semizlik, qandli deabet, qalqonsimon bez kasalliklari va boshqalar), homiladorlik davrida turli dori vositalarini qabul qilish, stress, psixologik bosim va homiladorlik davrida jismoniy jarohatlar hisoblanadi. Miya falaji rivojlanishining patofiziologik asosi (mexanizmi) – bosh miyaning ma'lum bir davrida shikastlanishi bilan bog'liqdir. Buning natijasida mushak tonusing g'ayritabiiy o'zgarishi (asosan spastik holat), postural reflekslar hamda zanjirli to'g'ri reflekslarning rivojlanishdan orqada qolishi kuzatiladi. Miya falaji va boshqa patologik holatlar o'rtasidagi farq- patologik omilning davomiyligi hisoblanadi.

Miya shikastlanishining miya falajiga olib keladigan holatlarning 80 foizigacha homila rivojlanish davrida sodir bo'ladi. Bachadon ichidagi buzulishlar keyinchalik tug'uruq ichida sodir bo'ladigan buzulishlar bilan kuchayadi.

Miya falajning kelib chiqish sabablari turlicha bo'lib ,ularning barchasi harakat-tayanch aparati va mushak tonusining buzilishi bilan kechadi. Ushbu buzulishlar markaziy asab tizimi shikastlanishining namoyon bo'lishiga ko'ra bir necha guruhlariga bo'linadi. Shuningdek, ICD-10 (G80) bo'yicha quydagi turlari farqlanadi: G80.0- Spastik kvadriplegiya (to'rt tomonlama falajlik) ; G80.1- Spastik diplegiya (ikki tomonlama falajlik) ; G80.2- Bolalar gemeplegiyasi (bir tomonlama falajlik) ; G80.3- Diskenetik serebral falaj ; G80.4- Ataksik serebral falaj ; G80. 8- Bolalar serebral falajining boshqa aniqlanmagan shakillari ; G80.9 – bolalar serebral falaji, aniqlanmagan .

Spastik deplegiya (G80.1) . Serebral falajning eng keng tarqalgan turi, shuningdek, "Litl kasalligi" deb ham ataladi. Spastik deplegiya ikki tomonlama oyoq - qo'l shikastlanishi bilan tavsiflanadi. Eng keng tarqalgan simptomlarga quydagilar kiradi : aqliy va nutqiy rivojlanishdag kechikish, eshitish qobilyatinong buzilishi, o'rtacha intellektual nogironlik. Spastik deplegiya asosan muddatidan oldin tug'ulgan bolalarda rivojlanadi.

BSF da harakat korreksiyasi bu- shunchaki jismoniy mashqlar emas, bolaning miyasida harakatlanish haqidagi yangi va to'g'ri dasturni yaratish jarayonidir. Rus olimasi E.M Mastyukova tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, shifoxonalarda ko'rsatiladigan kunlik korreksion ishlardan ko'ra uy sharoitida uzluksiz, har kungi 10-15 daqiqalik mashg'ulotlar samarali natija beradi. Uy sharitida olib boriladigan korreksion ishlar avval mutaxasis tomonidan ota-onalarga o'rgatiladi. So'ngra uy sharoitida bajarishga ruxsat beriladi. BSF bolalarda korreksion mashqlar har doim mushaklarni bo'shashtirishdan boshlanadi. Agar mushaklar qatib turgan bo'lsa mashqlarni bajarish bolaga og'riq beradi. E.M. Mastyukovaning mashqlar to'plami bu bolani va mushaklarni boshashtiruvchi mashqlar tizimi hisoblanadi. Uy sharoitida bola

katta ko'ptok ustiga qorni bilan yotqiziladi. Ota-ona uni belidan ushlab asta oldinga-orqaga tebratadi. Bu mashq barcha tana mushaklarini bo'shashtiradi.

BSF bolalarda harakat nuqsonlaridan tashqari nutq nuqsonlari ham uchraydi, nutq buzilishi asosiy o'rinni egallaydi. BSF da nutq buzilishi chastotasi 80 foizni tashkil etadi. BSF bolalarda ikkilamchi nuqson sifatida dizartriya nuqsoni uchraydi. Kinestetik idrokning rivojlanmaganligin BSF dizartriyasida muhim xususiyat hisoblanadi. Bunda bola harakatlarni chegaralangan holda qiyinchilik bilan bajaradi. Qo'l, oyoq va holatini bo'sh sezadi. Bu esa artikulatsion va umumiy dispoksiyaning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, natijada maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni qiyinlashtirib, tovushlar talaffuzining buzilishini kuchaytiradi.

Logopedik ishlarning maqsadi bolada artikulatsion holat va sezgilarni rivojlantirishdan iborat. Artikulatsion sezgilarni yaxshilash uchun uy shariotida olib boriladigan mashqlar oyna yordamida bajariladi. Avval mashqlarni ochiq ko'z bilan kuzatish so'ngra ko'zlarni yumib diqqatli bo'lib sezish talab etiladi. Nutq va qo'l matorikasing bog'liqligi V.M .Bexterev tomonidan aniqlangan bo'lib, qo'l harakatlarning rivojlanishi nutq rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishini ochib bergan . M.M .Kolsova tadqiqoti esa, bola barmoqlarning harakati markaziy asab tizimining shakillanishiga ta'sir ko'rsatib, nutqni jadal rivojlanishiga yordam berishini aniqlagan. Uy sharoitida mayda matorikani rivojlantirish uchun loviya, mosh, guruchni aralashtirib, alohida idishlarga ajratish eng oddiy va samarali usul hisoblanadi. Kiyimlardagi tugmalarni qadash, yechish, toza qum yoki tuz ustiga harflar yoki shakillarni chizish ham bolani matorikasi rivojlanishida yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, BSF bolalarni sog'lomlashtirishda faqatgina maxsus markazlar va shifoxonalarda olib boriladigan muolijalar bilan cheklanib qolmaslik, uy sharoitidagi uzluksiz korreksion ishlar olib borish, bolaning nutqiy va jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Defektolog, logoped, oila birgalikdagi ishlari BSF bolalar hayot sifatini yaxshilashga eng tog'ri yo'l bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.Y.Logopediya. Darstlik.- T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy Ayupova jamiyati" nashriyoti, 2007.- 448 b.
2. Madazizova D.R. Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning kilinik asoslari. O'quv qo'llanma.-T.: "O'qituvchi" nashriyoti 2021. – 256 b
3. Po'latova P.M., Nurmuhammedova L.N. , Yakunjonova D.B. Maxsus pegagogika.- t.: " Fan va texnologiya" nashriyoti, 2014.- 320 b
4. EDUCATION, S. I. I. I. INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH.

5. ABDULKHAMIDOVA, G. DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVE CITIZEN COMPETENCES IN HEARING DISABLED STUDENTS. *СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука"*, 15-16.
6. Abdulxamidova, G. N. (2023). ESHITISHDA NUQSONI BO ‘LGAN O ‘QUVCHILARDA IJTIMOIIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH BO ‘YICHA KORREKSION PEDAGOGIK ISH MAZMUNI VA AHAMIYATI. *Экономика и социум*, (12 (115)-1), 42-46.
7. [www.https://lex.uz](https://lex.uz)
8. [www. Avtsenna.uz](http://www.Avtsenna.uz)